MASOFAVIY TA’LIM PLATFORMASI

SHERMATOVA YULDUZXON ERKABOY QIZI

Qo’qon davlat universiteti

O’zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada masofaviy ta’lim platformalarining mohiyati, ularning ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bilim berish jarayonining samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Masofaviy ta’lim platformalarining afzalliklari, kamchiliklari hamda ularni rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, onlayn platforma, raqamli ta’lim, elektron o‘qitish, axborot texnologiyalari, ta’lim sifati.

ДИСТАНЦИОННАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ПЛАТФОРМА

ШЕРМАТОВА ЮЛДУЗХОН ЭРКАБОЕВНА

Кокандский государственный университет

Магистрант 1 курса по специальности “Узбекский язык и литература”

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность дистанционных образовательных платформ, их роль и значение в системе образования. Также анализируются вопросы повышения эффективности учебного процесса с использованием современных информационно-коммуникационных технологий. Рассмотрены преимущества, недостатки и перспективы развития дистанционных образовательных платформ.

Ключевые слова: дистанционное обучение, онлайн-платформа, цифровое образование, электронное обучение, информационные технологии, качество образования.

DISTANCE LEARNING PLATFORM

SHERMATOVA YULDUZKHON ERKABOYEVNA

Kokand State University

First-year Master's student in Uzbek Language and Literature

Annotation: This article discusses the essence of distance learning platforms, their role and importance in the education system. It also analyzes ways to improve the effectiveness of the learning process using modern information and communication technologies. The advantages, disadvantages, and future development prospects of distance learning platforms are examined.

Keywords: distance learning, online platform, digital education, e-learning, information technology, quality of education.

KIRISH. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda xalqaro kommunikatsion aloqalarning kengayishi fan, ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlarining o'zaro integratsiyalashuviga olib kelmoqda. Mazkur jarayonlar insonning butun umr davomida ta'lim olishini, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam ravishda yangilab borishini hamda mavjud kompetensiyalarini takomillashtirishini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimida zamonaviy elektron aloqa vositalari va raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayonlari an'anaviy shakldan bosqichma-bosqich onlayn muhitga ko'chib, yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, masofaviy ta'lim platformalari ochiq va moslashuvchan ta'lim muhitini yaratish orqali ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, turli hudud va ijtimoiy qatlam vakillari uchun bilim olishni yanada qulaylashtirmoqda. Shu bilan birga, masofaviy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, uning metodik, texnologik hamda tashkiliy asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur maqolada masofaviy ta'lim platformalarining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni, ularning afzalliklari va rivojlanish istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM. Masofaviy ta'lim platformalari zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, ular orqali ta'lim jarayonini tashkil

etishning yangi modeli yuzaga kelmoqda. Ushbu model an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlaridan farqli ravishda, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqani axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida amalga oshirishga asoslanadi. Natijada ta’lim jarayoni makon va vaqtga bog‘liq bo‘lmagan holda uzluksiz davom etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Masofaviy ta’lim tizimi o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishning nazariyasi va amaliyoti masalalari, uning didaktik va uslubiy asoslari, shuningdek, yurtimiz olimlari N.Muslimov, A.Abduqodirov, U.Begimkulov, A.Hayitov, M.Lutfillaev, N.Taylaqovlar tomonidan tadqiq qilingan. Rus olimlari A.Andreev, G.Levkin, Ye.Polat, N.Naydenova, I.Varganova, M.A.Malisheva, N.Valyushina, R.Pimonov, N.Gavrilov, I.Zadorojnyaya, S.Berejnaya, S.Bogdanovalar ishida masofaviy ta’lim tizimi modellari, rivojlantirish masalalari, masofadan o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash, o‘quv mazmunining variativligi kabi masalalar bayon etilgan. Masofaviy ta’lim tizimining yuqorida tadqiq qilingan jihatlari xorij olimlari I.Allen, A.Amadco, J.Seaman, D.Keegan, H.Kappel, B.Lehmann, J.Loeper, B.Holmberg, M.Dougiamas, P.Taylorlar izlanishlarida ham o‘z aksini topgan.

Xorijiy mamlakatlarda masofadan o‘qitish borasida boy tajriba to‘plangan. 1969 yilda Angliya premer-ministri G.Vilson tashabbusiga ko‘ra masofaviy ta’lim texnologiyasi shakllantirilgan bo‘lib, ammo masofadan o‘qitish ancha oldinroq, ya’ni, birinchi barqaror, muntazam pochta aloqasining shakllanish davrida yuzaga kelgan.

Bundan tashqari, 1858 yildan boshlab ularning mustaqil bilim olishlari, barcha ixtisosliklar va barcha sohalardagi akademik daraja uchun imtihon topshirishlariga ruxsat etilgan. 1938 yildan buyon Sirtqi ta’lim bo‘yicha Xalqaro kengash, 1982 yildan boshlab masofaviy ta’lim bo‘yicha Xalqaro Kengash nomi bilan mashhur xalqaro ta’lim tashkilotlari sifatida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Ochiq universitetlardagi masofaviy ta’limda o‘qish xarajatlari an’anaviy institutlarda o‘qitishga qaraganda 8–10 marta arzon. Masalan, Angliyada turg‘un o‘qishga 3000, masofaviy o‘qitish orqali bilim olishga esa atiga 300 funt sterling

to‘lanadi. Binolarga xizmat ko‘rsatish, jihozlar va laboratoriya uchun xarajatlar, o‘qituvchi, ma’muriyatlar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar shtati qisqaradi.

Shunindek, oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2020 yil 27 martda qabul qilingan “Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni joriy etish to‘g‘risida”gi buyrug‘iga ko‘ra Respublikamizdagi mavjud OTMlar masofaviy o‘qitish texnologiyalarini yaratish va ishga tushirish yuzasidan ishlarni boshlagan. Ilmiy manbalarning tarixiy analitik tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab mualliflar masofaviy o‘qitish modellarini tuzishga o‘z e’tiborlarini qaratishgan, jumladan, E.S.Polat rahbarligidagi jamoa o‘z monografiyalarida quyidagi 6 ta modelni ko‘rsatganlar. Masofaviy ta’lim o‘z oldiga barcha ta’lim oluvchilarning birdek talim olishiga sharoit yaratib berishni, ta’lim turlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirgan holda ta’lim berish sifat uzluksiz ta’lim darajasini oshirishni, asosiy faoliyat bilan bir qatorda qo‘shimcha ta’lim olish imkoniyatini yaratib berishni, uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishni, yangi tamoyillar asosidagi ta’lim darajasini ta’minlashni maqsad qilib belgilagan. Masofaviy o‘qitishda ta’lim beruvchi imkoniyatlari ham kengayib, u o‘zlashtirish jarayonini muvofiqlashtirishi, yangiliklar va innovatsiyalarga mos ravishda berayotgan fanini muntazam mukammallashtirishi, saviya va ijodiy faoliyatini chuqurlashtirishi talab etiladi.

Masofaviy ta’lim platformalarining ilmiy-nazariy asoslari konstruktivizm, konektivizm va andragogika kabi pedagogik yondashuvlarga tayanadi. Konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilim o‘quvchi tomonidan faol ravishda shakllantiriladi, bunda interaktiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va mustaqil izlanishlar muhim rol o‘ynaydi. Konektivizm nazariyasi esa raqamli muhitda bilim olish jarayonini tarmoqlar orqali axborot almashinuvi sifatida talqin etadi. Andragogik yondashuv esa kattalar ta’limida mustaqillik, tajribaga asoslangan o‘rganish va amaliy yo‘naltirilganlikni ustuvor deb hisoblaydi.

Masofaviy ta’lim platformalarining afzalliklari qatoriga moslashuvchanlik, individual yondashuv, resurslardan samarali foydalanish va ta’lim olish imkoniyatlarining kengayishi kiradi. O‘quvchilar o‘zlariga qulay vaqt va joyda bilim

olish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu esa ta’lim jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligini oshiradi. Bundan tashqari, raqamli ta’lim resurslari (video ma’ruzalar, interaktiv mashg‘ulotlar, virtual laboratoriyalar) o‘quv materiallarini chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mazkur tizimning ayrim muammolari ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, internet tezligi va barqarorligi bilan bog‘liq muammolar, o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining yetarli emasligi hamda akademik halollikni ta’minlash masalalari dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish va ta’lim kontentini sifatli ishlab chiqish zarurati ham muhim omillardan biridir.

Masofaviy ta’lim platformalarini rivojlantirish istiqbollari sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) tahlili va adaptiv o‘qitish texnologiyalarini joriy etish bilan bevosita bog‘liqdir. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, individual o‘quv trayektoriyalarini shakllantirish imkonini beradi. Shu orqali ta’lim jarayonining samaradorligi oshiriladi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yaxshilanadi.

XULOSA. Masofaviy ta’lim platformalari zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqib, bilim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Shu bilan birga, masofaviy ta’lim tizimining to‘liq samaradorligini ta’minlash uchun texnik infratuzilmani rivojlantirish, foydalanuvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish, sifatli ta’lim kontentini yaratish hamda o‘quv jarayonini samarali boshqarish zarur. Ayniqsa, sun’iy intellekt va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim jarayonini individuallashtirish va optimallashtirish imkoniyatlari kengayadi. Umuman olganda, masofaviy ta’lim platformalarini rivojlantirish va takomillashtirish orqali ta’lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish, uzluksiz

ta’limni ta’minlash hamda global ta’lim makoniga integratsiyalashuvga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Allayarova, S. Ya., & Sayitova, U. H. Masofaviy ta’lim: mazmuni, imkoniyatlari va kamchiliklari. Academic Research in Educational Sciences, 2021.

2. Abdukadirov A.A. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti monografiya. - T. O‘zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi, FAN, 2009.

3. Atabaeva K.R. Ta’lim tizimida masofaviy o‘qitishning afzalliklari / K.R.Atabaeva. - Tekst: neposredstvennыy, elektronnыy // Molodoy uchenыy. - 2017.

4. Mardonov, S. K., & Toshtemirova, S. A. Classifying the educational system as an innovative approach. ISJ Theoretical & Applied Science, 2020.

1. Niyozova S. Masofaviy ta’limning afzalligi: Bu tizimning dunyoda keng ommalashishiga sabab nima / http://hudud24.uz/.

2. UNESCO. — “Distance Learning Solutions” bo‘yicha hisobotlar, 2020–2023.